

## **YOSHLAR ONGIDA VATANPARVARLIK TUSHUNCHALARINI SHAKLLANTIRISH**

*Osiyo Xalqaro Universiteti magistri*

***Meliyev Ma'ruf Qiyomjonovich***

Vatanimizning salohiyati, ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari nechog'li ulkan ekanligi, yurtimizning qadimiyligi va boy tarixi ulug' ajdodlarimiz va ular qoldirgan madaniy meros bashariyat madaniyati va rivojiga qo'shgan ulkan hissasi haqida yoshlarning ongiga singdirib borish lozim. Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga tashlab qo'yadigan bo'lsak bizda ko'p yo'qotishlar bo'lishi mumkin. Rivojlanayotgan zamonda yashayapmizki, har qanday sohada vatanparvarlik tamoyillarini rivojlantirish, yurtga sadoqat, kasbga mas'uliyat bilan yondashish singari chuqur mohiyatga ega majburiyatlar ko'لامи kengaymoqda. Yosh avlodni tarbiyalashda harbiy vatanparvarlikning o'rni va ahamiyati, harbiy vatanparvarlik tarbiyasi, nafaqat mafkuraviy asoslarga, balki ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, axloqiy asoslarga ham bog'liq. Zero bugungi kunda harbiy vatanparvarlik tarbiyasi bevosita Qurolli Kuchlar tizimi, harbiy soha, davlat organlari va jamoat tashkilotlari orqali amalga oshirilsa-da, oila, mahalla va ta'lim muassasasi uni bilvosita amalga oshirishga mas'ul hisoblanadi va bu borada har bir fuqaro milliy-ma'naviy va axloqiy jihatlarni yaxshi bilishi lozim. O'zbekistonda yoshlarni sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, yoshlarning o'z ijodiy va aqliy salohiyatini ro'yobga chiqarishi, ularni har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratilgan. Uzoqni ko'zlagan holda qabul qilingan kadrlar tayyorlash,

maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturlari, yoshlarga oid davlat siyosati, o‘g‘il-qizlarimiz uchun turli yo‘nalishlar bo‘yicha ta’sis etilgan davlat mukofatlari, bunyod etilgan ta’lim maskanlari, bolalar sportini rivojlantirish borasidagi ishlar... Bularning hammasi barkamol avlodni, demakki, ertangi kunimizning munosib davomchilarini, yurt kelajagi jonkuyarlarini tarbiyalashga qaratilgan tadbirlar sirasiga kiradi. Quvonarlisi, yuqoridagi ezgu g‘oya, maqsadlarini amalga oshirish-yoshlarni ona Vatanga sadoqat va mehr-muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat va ehtirom, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, o‘g‘il-qizlarimizning orzu-istikclarini bugun barcha jabhalarda har bir sohada ko‘rishimiz mumkin. Aslida, yoshlarning mustaqil dunyoqarash va faol hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lishlari uchun har birimiz mas’ulmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Milliy g‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati-T:Akadimiya, 2007.
2. B. X. Raximov “ Ta’lim tizimida bo‘lajak o‘qituvchi shaxsning kasb madaniyati ” Samarqand.1996-y
3. Muslimov N. va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi.- T: “ Fan va texnologiyalar ” 2013.